

## DIALOGIK DISKURS HAQIDA. BADIY DIALOGIK DISKURSDA MILLIY MENTAL VA PRAGMATIK OMILLARNING ROLI.

Ismailov Jahongir Jaloliddinovich

O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

O‘zbek va chet tillari kafedrasi o‘qituvchisi

UDK:81'272:81`42:398.8 Tel:+998 93 600 57 82.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11207096>

*Annotatsiya. Maqolada Badiy dialogik diskursda milliy mental va pragmatik omillarning roli mavzusida eng avvalo uning turli ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari hamda kognitiv, tarbiyaviy va estetik vazifalar va maqsadlardan kelib chiqadigan muammolarni ko‘rib chiqadi.*

*Kalit so‘zlar: Badiy dialogik diskurs, etnologiya, grammatik kategoriya, milliy mental va pragmatik omillar, xalq og‘zaki ijodi, folklor an’anasi, XXI asr madaniy kontekstini shakllantirish.*

### ABOUT DIALOGIC DISCOURSE. THE ROLE OF NATIONAL MENTAL AND PRAGMATIC FACTORS IN ARTISTIC DIALOGIC DISCOURSE.

*Abstract. In the article, on the topic of the role of national mental and pragmatic factors in the artistic dialogical discourse, first of all, it considers the problems arising from its various socio-economic tasks and cognitive, educational and aesthetic tasks and goals.*

**Key words:** Artistic dialogical discourse, ethnology, grammatical category, national mental and pragmatic factors, folk oral creativity, folklore tradition, formation of the cultural context of the 21st century.

### О ДИАЛОГИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ. РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ МЕНТАЛЬНЫХ И ПРАГМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ДИАЛОГИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ.

**Аннотация.** В статье на тему роли национально-психологических и pragматических факторов в художественном диалогическом дискурсе, прежде всего, рассматриваются различные его социально-экономические задачи, а также проблемы, вытекающие из познавательных, образовательных и эстетических задач и целей.

**Ключевые слова:** Художественный диалогический дискурс, этнология, grammatischekaya kategorija, национальные ментально-прагматические факторы, народное устное творчество, фольклорная традиция, формирование культурного контекста XXI века.

Hozirgi zamон о‘zbek nasri uchun xarakterli bo‘lgan xususiyatlardan biri badiy asar qurilmasida g‘oyat muhim o‘rin tutgan dialogik diskurslarning qurilishi hamda vazifalar doirasining kengligi va rang-barangligidir. Dialogik diskurs o‘zining tuzilishi va badiy asar strukturasida egallagan o‘rni jihatdan ko‘pincha muallif bayonining kompozitsion-uslubiy tizimini belgilab beradi. Muallif asar bayonida qatnashuvchi personajlarning suhbatini shunday tashkil etadiki, natijada dialog yozuvchi uchun birgina ifodalash vositasi bo‘lib qolmaydi, balki bosh maqsad darajasiga ko‘tariladi. Shuning uchun ham dialog asardagi kompozitsion-syujet qurilishining ajralmas tarkibiga aylanib qolgan. Badiy adabiyotda dialogik diskursning o‘rni nihoyatda katta.

Asarda voqeа yozuvchi tomonidan bayon qilinar ekan, shunday vaziyat yuzaga keladiki, endi muallif voqealar rivojining keyingi bosqichini o‘z so‘zlari bilan ifoda qilishining iloji bo‘lmay qolmaydi. Bunday paytda yozuvchi dialogga murojaat qiladi. Demak, badiiy asarning bir butun struktural tizimi va uslubiy yaxlitligi dialogning asarda tutgan o‘rni va roli bilan uzviy bog‘liqdir.

Jahon va rus adabiyotshunosligida dialog muammolarini tadqiq etishga bag‘ishlangan talaygina ishlar mavjud. Bular orasida ayniqsa, Z.Klemensevich – polyak tilida, U.Mukarovskiy – chex tilida, O.Essen – nemis tilida<sup>1</sup>, N.Yu.Shvedova, M.L. Mixlina, T.G. Vinokur<sup>2</sup> kabi olimlar rus tilshunosligida dialog va uning sintaktik xususiyatlarini o‘rgangan bo‘lsa, M.M.Baxtin, M.B.Xrapchenko, V.V.Vinogradov, V.V.Odinsov kabi olimlarning tadqiqotlarida buyuk san’atkorlar F.Dostoevskiy, L.Tolstoy, A.S.Pushkin, N.Gogol va boshqalarning dialog yaratish borasidagi mahorati chuqur tahlil etiladi. Ularning ijodiga xos dialog turlari va ko‘rinishlari to‘g‘risida fikr yuritiladi. Dialogning inson shaxsini kamolga yetkazishda, uning xarakter sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynashi masalasi faylasuflarning ham e’tiboridan chetda qolmadi.

Professor V.I.Tolstixning yozishicha, odam «o‘zining hayotdagi o‘rni va qobiliyatining qay darajada ekanligini to‘la anglab yetishi uchun dialogga ehtiyoj sezadi. Xuddi mana shu ehtiyoj shaxsning aniq bir xarakter, aniq bir tip sifatida shakllanishiga» yordam beradi.

O‘zbek tilshunosligida dialogning o‘ziga xos xususiyatlari, tiplari va turlari, uning struktural qurilishi hamda vazifalarini aniqlashga oid tadqiqotlar sanoqli. Masalan, dialog hamda uning badiiy asardagi o‘rni to‘g‘risida akademik M.Qo‘sjonov o‘zining «Ijod saboqlari» kitobida qisqa va umumiy ma’lumot bergen, xolos. N.Hotamov, B.Sarimsoqovlarning «Adabiyotshunoslilik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati»da dialogning asosan dramatik asarlardagi vazifalariga to‘xtab o‘tilgan. Tadqiqotchi G.Imomova «Tipik milliy xarakterlar yaratishda badiiy nutqning roli» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida, garchi birinchi bobning 3-bo‘limi «Dialog, monolog va ichki nutqda milliy xarakterning ifodalanishi» deb nomlangan bo‘lsa-da, dialog va monolog atamalariga ta’rif berishni ortiqcha hisoblab, «Asarlarda dialog ikki va undan ortiq personajlarning o‘zaro so‘zlashuvi, tortishuvi, bir-birini inkor etuvchi turli xil e’tiqodi va xarakterini tasvirlash vositasi» ekanligini qayd etish bilan cheklanadi. Tilshunos U.Lafasovning «Dialogik nutqda sub’ektiv modallikning ifodalanishi»<sup>3</sup> mavzusidagi ilmiy ishida dialogik nutq tarkibida faqat modal so‘zlearning qo‘llanilishi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Professor A.G‘ulomov va M.Asqarovalar “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (Sintaksis) darsligida dialog so‘roq-javobdan iborat bo‘lganda to‘liqsiz gaplar javob gap tarzida kelishini qayd qilgan bo‘lsalar, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi A.S. Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti tomonidan nashr etilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (11 qism, Toshkent, 1966 yil)da dialog to‘liqsiz gapning bir turi sifatida ko‘rsatiladi va dialogik nutq tarkibida keluvchi to‘liqsiz gaplarning tuzilishi ustida fikr yuritiladi. B.O‘rinboev va A.H.Hazratqulov dialogik va dialogik replika tushunchalari haqida to‘xtalib o‘tgan.

Ko‘rinadiki, dialogik diskurs muammosini tadqiq etishga bag‘ishlangan mavjud ishlarning birortasida ham dialogik diskursda qo‘shma gap va uning o‘ziga xos semantik va struktur xususiyatlari tadqiq qilingan emas. Bu nihoyatda keng qamrovli va dolzarb muammolardandir.

Biz shu o'rinda dialog atamasiga to'xtalib o'tmoqchi edik: chunonchi, I.Sulton o'zining "Adabiyot nazariyasi" kitobida ta'rif beradi: N.Shukurov, N.Xotamov, M.Mahmudovlarning "Adabiyotshunoslikka kirish"<sup>4</sup> kitobida: "Adabiyot nazariyasi" ikki jildligida dialogik diskurs o'z aksini topgan.

Odatda, dialogik diskurs haqida gap ketganda, uni "ikki yoki undan ortiq shaxs o'rtasidagi suhbat" deb ta'riflashadi. Bu to'g'ri fikr. Gap shundaki, dialogik diskurs badiiy ijodkor uchun ijod texnikasining eng qiyin bo'laklaridan biri sifatida qaralsa, tilshunos uchun dialogik diskursning sintaktik o'ziga xosliklari, uning mazmuni va tuzilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilda ikki xususiyat mavjud, shu sababli fikr ikki holatda: og'zaki va yozma bayon etiladi.

Ular har doim bir-biri bilan munosabatda va aloqadorlikda bo'ladi. So'zlashuv tili yozma adabiy tilning manbaidir. So'zlashuv tili dialogik diskurs shaklida namoyon bo'ladi va bu diskurs hozirjavoblik asosida tuziladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, so'zlashuv tili deganda, faqat dialogni tushunmaslik kerak. Albatta, ular bir-biri bilan bog'liq hodisa, shu bois yozma va og'zaki adabiy til tarkibida har ikkala nutq shakli mavjuddir. L.V. Shcherbaning fikricha, so'zlashuv nutqi dialog shaklida yuz beradi. Bu esa dialogning tabiiyligini ta'minlaydi. Til dialogdagina o'zining haqiqiy borlig'ini namoyon qiladi. Tilning og'zaki va yozma shakllarini bir-biri bilan taqqoslab ko'rsak, adabiy tilning asosida monolog yotganligini ko'ramiz. L.V. Shcherba adabiy tilning belgilarini qo'rib chiqib, ularni adabiy tilning turli shakllari va ish yuritish tilining turli ko'rinishlari deb ikki guruhga ajratadi. "Har bir shakl va har bir usul hayotiy zarurat talab qiladigan ma'lum vazifani bajarish uchun uning sintaktik xususiyati bilan bog'liqdir", -deb hisoblaydi.

*Arosat yalangligida Yigit yolg'iz o'zi.*

*Yigit: Umrim o'tdi sarsonlikda, sargardonlikda,*

*Yaxshi-yomon zamonalarni ko'rib keldim men.*

*Ba'zan ma'no topa oldim chin insonlikda,*

*Ba'zan esa uni yerga urib keldim men.*

*Mana, o'sha tarozibon, u-ku farishta,*

*Insonlardan ko'ra yuksak turajak-ku u.*

*U zotga ham qiyin ekan bundaqa ishda,*

*Ko'zlarida allanechuk norizo tuyg'u.*

*Qiyin axir ularga ham, qalblari bordir,*

*Qiyin axir ularga ham-bordir ko'zlar.*

*Faqatgina farmon berar Ollohi Qodir,*

*Lekin qalbni anglamaydi qizlar singari.*

*Endi qayga borsam ekan bu dasht, sahroda,*

*Qayga borib padarimni kimdan so'rasam?*

*Bilolmasam, kim do'zaxda, kim arsh-a'loda... (A.Oripov)*

Dialogik nutq ham, monologik nutq ham uch ko'rinishda bo'lishi mumkin: **ichki nutq, tashqi nutq va parallel nutq**. Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanida Miryoqubning «men» bilan suhbatli dialogik nutq xarakterida, lekin ifoda tarzi ichki nutq shaklida berilgan. «Parallel

**nutq** - qahramon ichki va tashqi nutqlarining bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘lishidir. Bu nutq shakli ko‘pincha qahramonlar o‘rtasidagi dialog jarayonida kuzatiladi va ichki nutq bunday hollarda suhbatdoshga bo‘lgan munosabatni bildiradi».

*Fursatni to‘g’ri keltirib turib:*

*-Imperiya nima degani?-deb so‘radim.*

*-Nega so‘rab yotibsiz?-dedi.*

*-O‘zingiz bilgan amaldor oshnam bir kun «Imperiya botib boradi» dedi, shunda juda xafa bo‘lib gapirdi.*

*-Uning imperiya degani o‘ris podshosining qo‘l ostidagi yurtlar. Unda har qaysi millatdan bor, shu qatorda biz sho‘rliklar ham bor. (...) Sog‘in sigirni kim istamaydi? Oppoq, shirin suti bor...*

*-Nimaning suti bor? –deb so‘radim men.*

*Kuldi.*

*-Siz-biz sog‘in sigirmiz, bizning shirin sutimiz bor, ruslar va boshqa ajnabiylar «bizni» emib yotadilar. Bir biz emas. Qarangiz, Hindiston, Sharqiy Turkiston, Tunis, Jazoir, Mag‘ribiston, ya’ni Marokash (...)*

U gapiradi, gapiradi. Men hayron bo‘laman. Muncha nomlarni qaydan biladi? Hammasi qandoq qilib esida turadi? Hammasini o‘z ko‘zi bilan ko‘rganmi? Yo meni laqillatib, o‘z ichidan chiqarib aytadirmi? (Cho‘lpon)

Sharofuddin Xodjaev bilan Miryoqub o‘rtasida bo‘lib o‘tayotgan ushbu suhbat jarayonida Miryoqubning ichki nutqi bilan tashqi nutqi parallel ravishda berib borilgan. Qahramon ichki dunyosida ro‘y beradigan o‘zgarishlarni aks ettirishda bu usuldan foydalaniadi.

Dialogda ifodalilik, ekspressivlik elliptiklik formalari ko‘rinib turadi. Ular qahramon dunyosi va xarakterini ochishda, individual obraz yaratishda, ularning ijtimoiy xulqini aniqlashda sotsial-nutqiy xarakteristika hisoblanadi. Dialogda intonatsiya tez-tez o‘zgarib turadi. Bunda nutqning sinkretik tabiatи ijtimoiy matn va sharoit kabi funksional aloqa natijasida yuzaga keladi.

Bundan tashqari, dialogda suhbatdoshning eshitish qobiliyatini ham muhim rol o‘ynaydi.

Ma’lumki, so‘zlovchi o‘z nutqida turli xil ma’nolarni, jumladan, emotsionallikni ifodalaydi.

Bu ottenkalar intonatsiya yordamidagina to‘liq aniqlanadi. Har qanday sub’ektiv xarakterdagи fikr emotsionallikni aks ettiradi. Fikrning emotsional tomoni katta ma’no ahamiyatiga egadir.

Dialogik nutqning kuchli emotsionalligi maxsus formalarining mavjudligi, o‘ziga xos intonatsiyasi, oldindan o‘ylangan formalar bilan so‘zlashning imnoniyatsizligi uning asosiy belgisidir. Dialogik nutq o‘zining sintaktik qurilishi bilan ham ajralib turadi va u o‘zining sintaktik xususiyati bilan monologdan farqlanadi.

Monolog bilan dialog o‘rtasida struktural, formal va til formalarining ishtirokiga ko‘ra farqlar mavjud. Monolog uslubiy jihatdan shakllantirilgan sotsial-nutqiy shakldir. Bunda ijtimoiy, madaniy, nutqiy aloqa murakkab namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, monologik nutq tarkibida ham dialog bo‘lishi mumkin. Uning turlari bir necha xil bo‘ladi. Monolog uslubiy jihatdan neytral bo‘lib, uchinchi shaxsdan ikkinchi shaxsga qaratilgan bo‘ladi.

Hozirgi o‘zbek nasridagi dialoglar bir xil ko‘rinishga ega emas. Ular orasida dialogning eng ko‘p tarqalgan uch xil tipiga: jonli (real), xayoliy (tasavvurdagi), ichki dialog kabilarga ajratib ko‘rsatish mumkin. Nomlanishi jihatdan xayoliy va ichki dialoglar bir xildek tuyuladi. Shuning uchun ham ba’zida tadqiqotchilar ularni chalkashtirib yuboradilar. Aslida ular yaratilish jarayoni va tuzilishiga ko‘ra bir-biridan tubdan farq qiladi. Masalan, xayoliy dialog qahramonlar o‘rtasida avval ro‘y bergen jonli (real) dilogning keyinroq suhabdoshlardan yoxud uni eshitganlardan birining xayoli (tasavvuri)da qayta tiklanishidir. Ichki dialog esa qahramonning o‘z-o‘ziga yoki biror hamsuhbati (ehtimol, sevgilisi yoxud raqibi) bilan g‘oyibona fikrlashuvi, tortishuvi asosiga quriladi.

Keyingi yillar nasrida ommalashib borayotgan «bahs-dialog», «xarakteristik (tavsify) dialog», «dramatik dialog» kabi turlar ham uchala tip tarkibida ham g‘oyat unumli qo‘llanilayotganligining guvohi bo‘lamiz. Bunday turlar dialogning tub fazilatlarini o‘zida yorqin namoyon etishi bilan birga, hozirgi paytda asarning kompozitsion-stilistik qurilmasida tobora murakkablashib, kengayib va rang-baranglashib borayotganligi ko‘zga yaqqol tashlanmoqda.

Masalan, hozirgi nasrimizda birgina bahs-dialogning bir necha shakllarini uchratish mumkin.

Bahs-dialogning eng yaxshi namunasi yozuvchi Murodjon Mansurovning «Mangu jang» romanida uchraydi. Akademik M.Baxtin «Dostoevskiy poetikasining muammolari» kitobida «Dostoevskiy ijodida dialogning asosiy qurilishi juda sodda: xuddi «men» ni «o‘zga»ga qarama-qarshi qo‘ygandek, odamni odamga qarshi qo‘yadi», deb yozadi. Bizningcha, M.Mansurovning «Mangu jang» romani ham xuddi shunday uslubda yozilgandek. Aytish mumkinki, roman boshidan-oxirigacha munozara ruhi bilan sug‘orilgan, insonni-insonga yuzma-yuz qo‘yish asosiga qurilgan. Bu tortishuvchi tomonlar M.Mansurov qahramonlari orasida begona emas. Yozuvchi roman konfliktini kuchaytirish, syujet dinamikasini rivojlantirish niyatida, avvalo, bemor Burxon cholni shartli ravishda uch qiyofaga bo‘ladi. Suvratdagi Burxon to‘kis bilan o‘zligini anglayotgan va o‘zlikka qaytayotgan Siyratdagi Burxon o‘rtasida ayovsiz tortishuv ketadi. Uchinchi odam – bemor Burhon chol esa bunday paytda tinglovchi sifatida o‘zini chetga oladi. Suvratdagi Burxon bilan Siyratdagi Burhon o‘rtasida xayoliy dialog tipi qo‘llaniladi. Real dialogda Burhonga qarama-qarshi qo‘yilgan ikkinchi shaxs uning do‘sti va ayni paytda, uning amal pillapoyalaridan ko‘tarilishida xalaqt beradigan «raqibi» Akbar polvondir. Romanning bosh qahramonlari Burhon to‘qis bilan Akbar polvonning 20-30-yillardan to 50-yillargacha bir-biriga qarama-qarshi tarzda o‘tkazgan faoliyatları romanning asosiy g‘oyasini tashkil etadi va bu dialoglarda o‘zining yorqin ifodasini topgan.

Suvratdagi Burhon to‘qis bilan Siyratdagi Burhonning dialogi asosan bir-birlariga savol berish va muammo qo‘yishdan iborat. Bu savollarga javoblar va muammolar yechimi keyingi boblarda o‘sha voqealar ro‘y bergen davrlarga ekskursiya qilish orqali o‘z ifodasini topadi.

Demak, ushbu dialoglar roman syujetini rivojlantirishga turtki beradi, tugun tashlaydi, voqelik va xarakter dinamikasiga ko‘maklashadi. Boshqa adiblardan farqli o‘laroq, M.Mansurov romanida tavsify (xarakteristika) dialog turidan emas, balki bahs-dialog turining dialog-holat shaklidan ko‘proq foydalilanildi. Bu, ayniqsa, bemor Burhon chol bevosita ishtirot etgan jonli dialoglar hamda Suvratdagi Burhon bilan Siyratdagi Burhonlar qatnashgan xayoliy dialoglarda

qahramonning ayni chog‘dagi ichki va tashqi holatlarini parallel ravishda ifodalashga juda qo‘l kelgan.

Odil Yoqubov o‘z asarlarida asosan tavsifiy dialog turini qo‘llaydi. Adib yaratgan dialoglardan o‘quvchi qahramonlar xarakterini ko‘proq va chuqurroq bilib oladi. «Diyonat» romanining boshlanishidayoq Otaqo‘zi va Abror Shukurov Normurod Shomurodov, Gulsara aya bilan birgalikda «kattagina chorburchak hovli» ga kirib kelib tanishadi. Mana shu uchrashuvdan boshlab biz nafaqat muallif nutqi orqali, balki dialog, remarka, replikalar orqali ham bu qahramonlar to‘g‘risida batafsil ma’lumot ola boshlaymiz. Bu ma’lumotlar jamlanib, oxir-oqibatda domla Shomurodovning monumental qiyofasini vujudga keltiradi.

## **REFERENCES**

1. Boltayeva I. T. et al. PERIODS OF PRODUCTION EDUCATION. THE PERIOD OF INITIATION, PREPARATION, ACQUISITION AND COMPLETION OF THE PROFESSION //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 561-569.
2. Ganieva M. et al. THE UNITY OF TECHNIQUE, TACTICS AND STRATEGY IN TABLE TENNIS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 1175-1183.
3. Usmonova S. H., Akmurodov M., Kazokov R. THE INFLUENCE OF TEMPERAMENT ON THE CHOICE OF SPORTS ACTIVITIES //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 63-70.
4. Umaraliyeva F. T., Kazoqov R. T. THE ROLE OF SPORTSWOMEN IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY AND IN THE DEVELOPMENT OF SPORTS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 1124-1131.
5. Mustafayeva N. A., Kazoqov R. T. USING THE MAIN CHARACTERISTICS AND POSSIBILITIES OF THE ELECTRONIC SCHEDULE IN SOLVING ISSUES RELATED TO PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 1115-1123.
6. Kazoqov R. T., Axatov L. K. SPORT TOMOSHASINING ESTETIKASI. – 2024.
7. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 552-560.
8. Umarov D. X. et al. NATIONAL MOVEMENT FOR THE DEVELOPMENT OF PRIMARY CLASS STUDENTS'PHYSICAL PREPARATION USING GAMES //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 732-741.
9. Umarov D. X. et al. THE EFFECTIVENESS OF USING A SET OF SPECIAL EXERCISES IN ANNUAL PREPARATION TRAINING OF SHORT-DISTANCE RUNNERS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 742-753.
10. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 552-560.
11. Turopovich K. R., Rixsibayevna D. S. ENHANCING ENGLISH LANGUAGE LEARNING THROUGH PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES. – 2024.

12. Kazakov R. T. et al. MULTIMEDIA SYSTEMS AND DISTANCE LEARNING TECHNIQUES IN SPORTS SOX //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 99-105.
13. Kazakov R. T., Rasulov Q. Q. TRAINING IN INTERNATIONAL WRESTLING TECHNIQUES AND TACTICS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 180-186.
14. Yusupova N. R. SOCIO-GENDER ASPECTS OF MODERN WOMEN'S SPORTS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 118-124.
15. Kazakov R. T. THE MAIN PHYSICAL QUALITIES OF ATHLETES //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 719-725.
16. Джўрабаев А. М., Казоқов Р. Т. Биомеханик таҳлиллар асосида енгил атлетикачиларнинг функционал тайёргарлигидаги корреляция алоқаларининг таҳлили //Yoshlarni qo 'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" ga bag'ishlangan. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-208.
17. Kazoqov R. T., Djurabaev A. M. Kredit modul tizimi nima //Ta'limgi raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-206.
18. Казоқов Р. Т., Джўрабаев А. М. Юлдашева КА ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯНИНГ РИВОЖЛANIШИ //SPORT MENEJMENTI VA MARKETINGI: MUAMMOLAR, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR. – С. 1,237-240.
19. Казоқов Р. Т. и др. МАМЛАКАТИМИЗ ЯНАДА ЮКСАЛИШИДА БОЛАЛАР СПОРТИНИНГ ЎРНИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 5-11.
20. Казоқов Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 111-115.
21. Казоқов Р. Т. Кейс стади технологияларидан фойдаланиб талабаларнинг масофавий таълим технологиялари асосида педагогик маҳоратини шакллантириш //Замонавий футболни ривожлантириш тенденциялари: муаммо ва ечимлари. – Т. 11. – №. 1.
22. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 552-560.
23. Казоқов Р. Т., Мирзабиллаева А. И., Мирзабиллаева Х. И. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-МАЊАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 29-34.
24. Казоқов Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ

- //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 111-115.
25. Kazoqov R. T., Djurabaev A. M. Kredit modul tizimi nima //Ta’limni raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-206.
26. Давурбаева М. Ж., Казоков Р. Т., Мадаминов М. П. ТАЛАБА ЁШЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШДАГИ БИЛИМ ВА КҮНИКМАЛАРИНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИНТЕРНЕТ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АХАМИЯТИ//Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 26-31.
27. Давурбаева М. Ж., Казоков Р. Т., Мадаминов М. П. ТАЛАБА ЁШЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШДАГИ БИЛИМ ВА КҮНИКМАЛАРИНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ИНТЕРНЕТ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АХАМИЯТИ//Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 26-31.
28. Казоков Р. Т. и др. КАСБИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ИЛГОР ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ЗАРУРАТИ //GOLDEN BRAIN. – 2024. – Т. 2. – №. 8. – С. 69-77.
29. Казоков Р. Т., Жўрақўзиев О. О., Эшпўлатов С. С. СПОРТ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-МАЊАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 238-248.
30. Казоков Р.Т., Бўриев Б.Ў., Абдиев Б.Ш., Джўрабаев А.М., Туропов А.Р.КУРАШ МИЛЛИЙ СПОРТ ТУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ // МИЛЛИЙ КУРАШ ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ НАЗАРИЙ-АМАЛИЙ МУАММОЛАРИ. - 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 161-163.
31. Джўрабаев А. М., Казоков Р. Т. Биомеханик таҳлиллар асосида енгил атлетикачиларнинг функционал тайёргарлигидаги корреляция алоқаларининг таҳлили //Yoshlarni qo ‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” ga bag‘ishlangan. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-208.
32. Bektorov O. Y. et al. MONITORING THE KNOWLEDGE, SKILLS AND SKILLS OF STUDENTS DURING THE TRAINING PROCESS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 342-352.
33. Kazoqov R. T., Bo'ronov A. B. SPORTDAGI DOLZARB YANGILIKLAR //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 47-56.
34. Казоков Р. Т. и др. SPORT MENEJMENTI VA MARKETINGI: MUAMMOLAR //TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR. – С. 1-237.
35. Eshpo'latov S. S. METHODS AND PRINCIPLES OF IMPROVING TECHNICAL AND TACTICAL SKILLS AND PHYSICAL TRAINING OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 1296-1302.

36. Kazoqov R. T., Eshpo'latov S. S. YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS ARE THE PROCESSES OF ORGANIZING TRAINING SESSIONS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 1303-1310.
37. Pirmatov O. Z., Kazakov R. T. ROLE AND PLACE OF SPORTS AND ACTIVE GAMES IN THE GENERAL STRUCTURE OF EDUCATIONAL AND PRODUCTION PRACTICE //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 125-131.
38. Kazakov R. T., Rasulov Q. Q. TRAINING IN INTERNATIONAL WRESTLING TECHNIQUES AND TACTICS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 180-186.
39. Axatov L. K., Burliyev U. K., Kazoqov R. T. AESTHETICS OF SPORTS SPECTACLE //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 19-28.
40. Kazoqov R., Akmuradov M. PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF JUDO //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 481-488.
41. Kazoqov R. T., Umaraliyeva F. T. DRAW A KINESICYCLOGRAM OF SHORT-DISTANCE RUNNING AND BUILD A TIMELINE //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 1201-1208.
42. Kazoqov R. T. et al. IMPROVEMENT OF TECHNICAL TRAINING OF SHORT-DISTANCE ATHLETES //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 1077-1084.
43. Kazoqov R. T. et al. STARTING TECHNIQUE IN SHORT DISTANCE RUNNING //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 1070-1076.
44. Xalmuxamedov R. et al. ANALYSIS OF THE DEPENDENCE OF THE CONDITIONS OF THE MIDDLE MOUNTAIN OF INDICATORS OF THE INTENSITY ZONES OF TRAINING TRAINING LOADS OF QUALIFIED BOXER WOMEN //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 473-483.
45. Shoyimardanov S. A., Bobomurodov A. E., Kazaqov R. T. FORMATION OF PEDAGOGICAL SKILLS AND SKILLS IN STUDENTS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 425-434.
46. Jumayev U. X. et al. ANALYSIS OF THE FINANCIAL POLICY OF THE RUSSIAN EMPIRE IN OFFICIAL DOCUMENTS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 1202-1209.
47. Ziyamuxamedova S. A., Kazaqov R. T., Shukurova S. S. SOME BIOCHEMICAL BLOOD RESEARCHES OF ROWERS DURING PREPRATION PERIOD AND CONTESTS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 982-989.
48. Raxmatov B. S. et al. SHORT DISTANCE RUNNING TECHNIQUE //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 990-1000.
49. Yugay L. P. et al. RECOVERY OF THE BODY OF SHORT-DISTANCE RUNNING ATHLETES DURING SPORTS TRAINING //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 365-371.
50. Akbarov A. et al. ANTHROPOMETRIC-PHYSIOLOGICAL INDICATORS OF MIDDLE-DISTANCE RUNNERS AND RECOVERY OF THEIR BODY DURING TRAINING //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 358-364.

51. Kim D. et al. PEDAGOGICAL ANALYSIS OF THE PARTICIPATION OF STUDENT ATHLETES IN THE SWEDISH TEAM AND THE SWEDISH TEAM IN THE UZBEKISTAN CHAMPIONSHIP IN HEIGHT ATHLETICS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 346-353.
52. Nurullayeva D. S. et al. ETHICAL PROBLEMS AND THEM IN THE FIELD OF NATURE SOLUTIONS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 480-486.
53. Kazaqov R. T., Djo'rabayev A. M. MEANS OF RECOVERY OF WORKING CAPACITY OF SHORT-DISTANCE RUNNERS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 902-911.
54. Kazoqov R. T., Djo'rabayev A. M. DEVELOPMENT OF CYBER SPORTS IN UZBEKISTAN //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 893-901.
55. Yaqubov F. M. et al. METHODOLOGY OF SELECTION OF 10-12-YEAR-OLD PLAYERS AND ORGANIZATION OF TRAINING //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 1271-1279.
56. Казоқов Р. Т. ҚИСҚА МАСОФАГА ЙОГУРУВЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ВА МАХСУС ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИК КҮРСАТКИЧЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ //Fan-Sportga. – 2022. – №. 7. – С. 53-55.
57. Djo'rabayev A. M., Kazoqov R. T. O'ZBEKISTONDA KIBERSPORTNI RIVOJLANISHI. – 2024.
58. Baltayeva I. T. et al. USE OF VIRTUAL LABORATORIES TO CONDUCT FOOTBALL TRAINING //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 709-718.
59. Baltayeva I. T. et al. CREATING AN INFORMATION-EDUCATIONAL ENVIRONMENT USING MODERN INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 700-708.
60. Melziddinov R. A., Akramov B. N., Kazoqov R. T. THE RELATIONSHIP OF THE EFFICIENCY OF TECHNICAL-TACTICAL ACTIONS OF FOOTBALL PLAYERS WITH THE LEVEL OF PHYSICAL PREPARATION //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 1153-165.
61. Umarov D. X. et al. NATIONAL MOVEMENT FOR THE DEVELOPMENT OF PRIMARY CLASS STUDENTS'PHYSICAL PREPARATION USING GAMES //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 732-741.
62. Umarov D. X. et al. THE EFFECTIVENESS OF USING A SET OF SPECIAL EXERCISES IN ANNUAL PREPARATION TRAINING OF SHORT-DISTANCE RUNNERS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 742-753.
63. Jumayev U. X. et al. " PEDAGOGICAL EDUCATION INNOVATION CLUSTER" MEANS COMMON GOALS AND SPECIFIC INTERESTS //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 552-560.
64. Turopovich K. R., Rixsibayevna D. S. ENHANCING ENGLISH LANGUAGE LEARNING THROUGH PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES. – 2024.